

O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA YO'RIQNOMALARING O'RNI

Toshpo'latova Gulsevar Akbar qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ona tili va adabiyoti ta'limi fakulteti 3- bosqich talabasi. Telefon raqami : 94 535 05 09

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlanirishda yo'riqnomalarning o'rni ularga doir berilgan topshiriqlar tahlili keltirilgan. O'qib tushunish darajalari haqida fikr yuritilgan. Yo'riqnomalar orqali o'qib tushunish ko'nikmasi bilan birga matnda ifodalangan ilmiy ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazib berish jarayonini tahlil qilish ham nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: o'qib tushunish, yo'riqnomalarni tushunish jarayoni, matnni o'qish jarayoni, matn o'qilgandan keying jarayon, tushunish darajalari, yo'riqnomalar asosida topshiriqlar bajarish jarayoni.

O'qib tushunish – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. O'qib tushunish – o'qilayotgan matnning ma'nosini tushunish, uni sharhlash va unga munosabatini shakllantirish qobiliyati. Bu boshlang'ich mакtabda o'quvchilarga o'rgatish kerak bo'lgan eng muhim mahoratdir.

O'qib tushunish darajalari: So'zma-so'z tushunish. Matnni takrorlash yoki qayta yaratish, asosiy ma'lumotlarni ajratib ko'rsatish, asosiy voqealar, g'oya, joy, vaqt, xronologiya, syujet, harakatni aniqlash qobiliyatidir.

Analitik tushunish. Tushunishning keyingi darjası - muallif tomonidan qo'yilgan ma'noni ochib berish, sabab-natija munosabatlarini tushunish, tanish va yangi ma'lumotlarni tahlil qilish va izohlash (talqin qilish), taqqoslash qobiliyati.

Tanqidiy yoki baholovchi tushunish - bu matnga o‘z munosabatini bildirish va ifodalash. O‘qib tushunish ko‘plab omillarga bog’liq:

- so‘zlarning ma’nolarini tushunish;
- to‘g‘ri o‘qish (agar o‘quvchi so‘zlarni noto‘g‘ri o‘qisa, u butun gapning ma’nosini tushunmaydi);
- o‘qishning ravonligi (tezligi) (agar o‘quvchi hali ham bo‘g‘inlab o‘qisa, u o‘qilgan narsaning ma’nosini "tushunishi" qiyin bo‘ladi);
- o‘quvchilarning hayotiy tajribasi va bilimlari; xotira, fikrlash, tasavvur qilish qobiliyatlarining rivojlanganligi muhimdir.¹ Yo‘riqnomalar orqali o‘qib tushunish jarayoni analitik tushunish jarayonini tashkil etadi.

Metodik adabiyotlarda o‘qib tushunishga o‘rgatish bo‘yicha mashqlar matnni o‘qish jarayoniga nisbatan tasniflanadi. Ular matnoldi, matn bo‘yicha va matndan keyingi topshiriqlarga bo‘linadi. 1.Matnoldi topshiriqlarning vazifasi o‘qishning psixologik mexanizmlarini maqsadga qaratilgan holda shakllantirish, yangi so‘zlar va grammatik hodisalarни tushuntirish, ularni qo‘llashni mashq qilishdan iborat. Til materiali bilan ishslash matnoldi mashqlar bosqichida tugaydi. Keyingi bosqichlarda til o‘rganuvchilarning diqqati matndagi axborotni anglash, uning mazmunini qayta ishslashga qaratilishi kerak.

2.Matn bo‘yicha topshiriqlar o‘qishga kommunikativ yondashuvni o‘rnatadi.

3.Matndan keyingi topshiriqla o‘qilgan matnning tushunilganligini, axborotning matn bo‘yicha mashqlarda ko‘rsatilgan savollar va topshiriqlarga muvofiq qayta ishlanganligini nazorat qilishga qaratiladi.²

¹ Abduraimov Sh. Ona tili ta’limida o‘qib tushunish ko‘nikmasini baholashning nazariy va metodik asoslari. Lingvodidaktikaning dolzarb masalalari. Xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent: ToshDO,,TAU, 2022. – 530 b.25 bet.

² Gulshan Asilova.O‘zbek tilida o‘qib tushunish malakalarini rivojlantirish. Lingvodidaktikaning dolzarb masalalari. Xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent: ToshDO,,TAU, 2022. – 530 b.50- bet.

Maktabda hozirda amalda bo‘lgan 7- sinf ona tili darsligida yo‘riqnomalar uchun alohida bob ajratilgan bo‘lib unda c vitaminini bo‘yicha yo‘riqnomalar namunasi keltirilgan. Matnga olib kiruvchi topshiriq sifatida esa savollar ketma – ketligi berilgan.

1. Dori ichishdan oldin qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomalar bilan tanishish nega muhim?
2. C vitaminining fanda yana qanday nomi bor?
3. Oxirgi marta qachon, qanday mahsulotning qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomasi bilan tanishdingiz?
4. Yo‘riqnomalarda faol va yordamchi moddalar ajratib ko‘rsatiladi. Ularning farqi nimada bo‘lishi mumkin?
5. Yo‘riqnomada dori tavsifi berilishi nima uchun muhim?
6. Mazkur preparat qanday salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin ekan? Albatta , bu savollarga javobni o‘quvchilar darslikda berilgan yo‘riqnomalar asosida javob berishadi. Bu jarayon esa o‘qib tushunishning birinchi ko‘nikmasi hisoblanadi. Keyingi topshiriqlar ham yo‘riqnomalar matni asosida berib borilgan.
 - 1.Yo‘riqnomalar matni asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.
 - 2.Yo‘riqnomalar matni asosida berilgan testlarni yeching. Test kalitini tuzib, javoblarni daftarga belgilang.

3.Bolalar ichishi mumkin bo‘lgan biror dorining qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomasi bilan tanishing. Undan o‘zingiz eng muhim deb bilgan beshta ko‘rsatmani ko‘chiring.

4.C vitaminining dori shaklidagi tavsifiga oid qismni ko‘chirib oling. “Qanday?” so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘zlarining tagiga chizing.

5. O‘zingiz ichgan birorta dorining shunday tavsifini yozing.³ Bu topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar nafaqat o‘qib tushunish balki grammatik mavzularni ham o‘zlashtirib ketadi.

Men bu topshiriqlarga qo‘srimcha tarzda yo‘riqnomalar matniga bir nechta yordamchi topshiriqlar tavsiya etmoqchiman.

³Umumiy o‘rta ta’lim maktabalarining 7-sinfi uchun darslik. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov. T. 2022.

1. Vaziyatli topshiriq. Bu topshiriq o‘quvchilarda tasavvurni kengaytiradi va og‘zaki nutqni ham rivojlantiradi.

Faraz qiling, oila a’zolaringiz c vitaminini qanday holatlarda is’temol qilishni bilishmaydi. Siz ularga yo‘riqnomalar matnidagi ketma – ketlikdan foydalanib o‘zingizning og‘zaki yo‘riqnomangizni aytib bering.

2. Yo‘riqnomalar matni asosida turli xil qisqa jumboqlar yaratish mumkin.

3. Xatoni to‘g‘rila topshirig‘ini berish mumkin.

Bu topshiriqlar esa diqqatni oshirishga , ijodiy va tanqidiy fikrlashga yordam beradi. Eng asosiysi esa zamonaviy metodika talablariga mos holda bola zerikib qolishini oldini oladi va 4K metodiga to‘liq mos tushadi.

Fikrimni xulosalar ekanman, Shunisi muhimki, har qanday matn va uning mazmunini tushunganlik yuzasidan topshiriqlar o‘quvchining sinfi, yosh xususiyati hamda qiziqishlarini e’tiborga olgan holda tuzilishi kerak. O‘qishni nazorat qilish mashqlarini tanlashda har doim nazorat obyekti matnning til materiali emas, uning mazmuni ekanligini unutmaslik lozim.

1. O‘qib tushunish – nutqiy faoliyatning turlaridan biri sifatida murakkab psixofiziologik jarayon bo‘lib, faqat muayyan lingvistik poydevor, ya’ni fonetik va leksik-grammatik bilimlar asosida amalga oshiriladi.⁴

2. O‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishda ushbu jarayonning 2 tomoni, ya’ni yozma xabarni qabul qilishga tayyorlaydigan o‘qish texnikasini hamda axborotni sodir bo‘lgan nutqiy faoliyat mahsuli sifatida anglashni inobatga olish zarur. Buning muhim sharti esa tizimli va maqsadga qaratilgan maxsus mashqlarni bajarishdir.

3. O‘qishni nazorat qilish obyekti matnning til materiali emas, uning mazmunini tushunishdir. Yo‘riqnomalar matni esa bu sabablarni ochib berish uchun yaqqol namuna sifatini o‘taydi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

⁴Muxitdinova X.S. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (o‘zga tilli guruhlarda) / Monografiya. T., 2021.

1. Abduraimov Sh. Ona tili ta'limida o‘qib tushunish ko‘nikmasini baholashning nazariy va metodik asoslari. Lingvovidaktikaning dolzarb masalalari. Xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2022. – 530 b.25 bet.
2. Gulshan Asilova.O‘zbek tilida o‘qib tushunish malakalarini rivojlantirish. Lingvovidaktikaning dolzarb masalalari. Xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2022. – 530 b.50- bet.
3. Muxitdinova X.S. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (o‘zga tilli guruhlarda) / Monografiya. T., 2021.
4. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov. T. 2022.